



NEMIS TILIDA BILVOSITA NUTQNING SHART MAYLI BILAN IFODALANISHI

Nazarova Shoxida Ismatovna

Qarshi DU doktranti

nazarova.shoxida@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179421>

Annotatsiya: *Mazkur maqolada nemis tilida bilvosita nutqning Konjunktiv – shart mayli bilan ifodalanishi, bunda xabar yetkazuvchi shaxs Konjunktivning shakllarini to'g'ri tanlashining muhimligi, shart mayli qanday ma'noni ifodalashiga e'tibor qaratish lozimligi, bir shaxsning fikrini boshqa bir shaxsga uzatishda ikkilanish, shubha-gumon va yoki neytrallikning saqlab qolinishi to'g'risida fikr yuritiladi*

Kalit so'zlar: *bilvosita nutq, shart mayli, Konjunktiv 1 va Konjunktiv 2, Indikativ, sintaktik va semantik jihatlar.*

Bilvosita nutq nemis tilida, ayniqsa ilmiy, publitsistik va huquqiy kontekstlarda markaziy rol o'ynaydi. Bu boshqalarning bayonotlarini so'zma-so'z takrorlamasdan, aksincha sintaktik va semantik jihatdan qisman o'zgartirib yetkazish uchun xizmat qiladi. Bilvosita nutq nafaqat rasmiy o'zgarishlarga, balki bayonot mazmunini o'zgartirishi mumkin bo'lgan semantik siljishlarga ham olib keladi. Avvalo, to'g'ridan-to'g'ri nutq va bilvosita nutq o'rtasidagi farqni qisqacha aytib o'tish joiz.

To'g'ridan-to'g'ri nutq, odatda, qo'shtirnoq yoki "aytmoq", "so'ramoq" kabi kirish fe'li bilan birgalikda fikrning so'zma-so'z takrorlanishi bilan tavsiflanadi. Bilvosita nutq esa gapni grammatik jihatdan gap tuzilishiga moslashtiradi, nemis tilida asosan konjunktiv (shart mayli)dan foydalangan holda ifodalanadi. Ushbu transformatsiya ma'noning nuanslariga, ya'ni farqlanishlarga olib kelishi mumkin, ayniqsa konjunktiv indikativ(xabar mayli) bilan almashtirilganda, bu mazmunan uzoqroq yoki neytral ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin.

Dora Xeldtning "Ko'l bo'yidagi uch ayol" kitobidan olingan misol buni yaqqol ko'rsatadi:

Als Marie von ihrer Freundin Jule erfährt, dass sie sich in ihrer Ehe nicht mehr wohlfühlt. Mariya dugonasi Yuliyaning ortiq turmushidan ko'ngli to'lmayotgani haqida xabar topgach Aleksandruga bu xabarni quyidagicha bayon etadi:

"Jule habe gesagt, dass sie sich schon seit Jahren nicht mehr glücklich in ihrer Ehe fühle." (Yuliya aytdiki, u ancha yildan beri turmushidan norozi ekan¹)

¹ Tarjimalar maqola muallifiga tegishli



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Bu yerda konjunktiv asl gapga nisbatan ancha befarqlikni ifodash bilan birga „seit Jahren“ jumlasini ham orttirgan. Asl xabarni o'zgaga yetkazuvchining roli ancha sezilarli, u istalgan o'rinda istalgan jumlaning qo'shib bayon etishi mumkin.

Shuningdek, bilvosita nutq orqali ma'no o'zgarishini ham alohida ta'kidlash lozim. Bilvosita nutqning semantik xususiyatlari aytilgan gapning talqiniga ta'sir qiladi. Maylni tanlash (Konjunktiv I yoki II) orqali so'zlovchining asl gapga munosabatini bildirish mumkin. Konjunktiv I odatda fikrni neytral yetkazish uchun ishlatiladi, konjunktiv II esa shubha yoki mazmundan uzoqlashishni ifodalashi mumkin. Bundan tashqari, bilvosita nutq ko'pincha asl mazmuni umumlashtirish yoki mavhumlashtirishga olib keladi, chunki kontekst ma'lumotlari va urg'u inobatga olinmaydi.

Bu semantik o'zgarish Dora Heldtning „Ko'l boyidagi uch ayol“ romanidagi quyidagi jumlada ham ko'rinadi: Mariya dugonalari uning shaxsiy qarorlari haqida o'ylashayotganini bilgani bilvosita nutqda quyidagicha aks etadi:

"Sie hätten gesagt, dass Marie sich wohl nie für ein beständiges Leben entscheiden könne." ("Ular Mariya hech qachon barqaror hayot to'g'risida qaror qabul qila olmasligini aytishgan bo'lardi".) Konjunktiv II dan foydalanish Mariya o'zini bu bayonotdan uzoqlashishini va bu haqiqat ekanligiga shubha qilayotganini ko'rsatadi.

Shuni yana alohida ta'kidlash joizki, konjunktiv I va II ning qo'llanishi nemis tilidagi bilvosita nutqning muhim xususiyati hisoblanadi. Konjunktiv I da manbani neytral tarzda keltirish afzalroqdir, masalan, yangiliklar yoki ilmiy maqolalarda ayni shu holat ko'zga tashlanadi. Konjunktiv I shakli indikativ shakli bilan bir xil bo'lsa, farqlash uchun konjunktiv II ishlatiladi. Biroq, bu semantik siljishga olib kelishi mumkin, chunki konjunktiv II ko'pincha amalga oshirilmaydigan yoki shubhali xarakterga ega.

„Ko'l boyidagi uch ayol“ romanidan olingan navbatdagi misol ham buning isbotidir:

Als Alexandra über ihre Kindheit spricht, sagt sie, ihre Eltern "hätten ihr immer gesagt, dass sie später einmal eine große Karriere machen würde." (Aleksandra bolaligi haqida gapirganda, ota-onasi u katta bo'lganida har doim katta martabaga ega bo'lishini aytishgan).

Bu gapda konjunktiv II ning tanlanishi Aleksandraning bu umidlar haqiqatga mos kelishi yoki kelmasligiga ishonchi komil emasligini ko'rsatadi.

Shu o'rinda bilvosita nutqda pragmatika(so'zning vaziyatga bog'liq bo'lgan ma'nosi) va implikatura(yashirin ma'no)larning rolini ko'rib chiqamiz. Bilvosita nutqda sintaktik va semantik jihatlardan tashqari, pragmatika ham muhim o'rin



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

tutadi. Bilvosita nutq bilvositalik akti vazifasini bajarishi va yashirin ma'nolarni bildirishi mumkin, masalan, kinoya, skeptitsizm yoki shubha. Shuning uchun tanqidiy nuqtayi nazar yoki neytral hisobot berish uchun maylni tanlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Shuningdek, bilvosita nutqning 3-shaxsga nechog'lik ta'sir etishi ham muhimdir, ya'ni tinglovchi yoki o'quvchi muxbirning bayonoti kontekst bilan qanchalik o'xshashligini yoki farqli ekanligini aniqlay olishi kerak. "Ko'l bo'yidagi uch ayol" romaniga yana murojaat qilamiz:

Als Jule sich über das Verhalten ihrer Freundinnen wundert, berichtet sie später, dass sie immer gesagt hätten, dass Freundschaft ewig halte. (Yuliya do'stlarining xatti-harakatidan hayron bo'lganida, u keyinchalik ular doim do'stlik abadiy davom etadi, deb aytishgan, deb xabar beradi).

Bu yerda konjunktiv II bilan bog'liq bilvosita nutq bu gapning haqiqati haqida tanqidiy fikr yuritishni anglatadi.

Du bist mit meiner Mutter befreundet, sie erzählt dir sicher alles, aber hat sie dir auch gesagt, dass sie mir kein Studium finanzieren kann? Weil die Welt immer so gemein zu ihr war? (Sen onam bilan do'stlashgansan, u senga hammasini so'zlab bergan, lekin senga u meni o'qishim uchun pul bera olmasligini ham aytgandir? Chunki dunyo unga nisbatan doim beshafqat bo'lgani hammi?).

Yuqoridagi gapda so'zlovchi onasining u haqidagi fikrlari, moliyaviy ahvolini 3-shaxsga yetkazganligi aniq ekanligini ta'kidlamoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bilvosita nutq murakkab lingvistik hodisa bo'lib, u nafaqat tarkibiy, balki chuqur semantik va pragmatik ta'sirga ham ega. Bunday gaplarning ishlatilishi turli omillarga, jumladan kommunikativ kontekstga, so'zlovchining niyatiga va konjunktivning tanlangan shakliga bog'liq. Nemis tilida bilvosita nutqdan to'g'ri va nozik foydalanish uchun ushbu semantik xususiyatlarni tushunish hamda ongli ravishda qo'llash juda muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Dudenredaktion. (2016). *Duden: Die Grammatik* (9. Aufl.). Berlin: Dudenverlag.
2. Eisenberg, P. (2013). *Grundriss der deutschen Grammatik. Band 2: Der Satz*. Stuttgart: Metzler.
3. Helbig, G., & Buscha, J. (2001). *Deutsche Grammatik: Ein Handbuch für den Ausländerunterricht*. Langenscheidt.
4. Zifonun, G., Hoffmann, L., & Strecker, B. (1997). *Grammatik der deutschen Sprache*. Berlin: de Gruyter.
5. Weinrich, H. (2003). *Textgrammatik der deutschen Sprache*. Stuttgart: Klett.
6. Heldt, D. (2018). *Drei Frauen am See*. München: dtv.